

O‘ZBEK TILI ONOMASTIK TIZIMIDA ANTROPONIMLAR

Tursunboyeva Gulzoda Bekmirza qizi*NamDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs magistranti**Tel: +998972823090**Email: abduhamidovagulzoda02@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilining onomastik tizimi doirasida antroponimlarning shakllanishi, tarixiy-etimologik asoslari, ularning ijtimoiy-lingvistik vazifalari hamda til tizimidagi o‘rni ilmiy tahlil qilinadi. O‘zbek antroponimlari turli tarixiy davrlarda shakllangan etnik, diniy, madaniy qatlamlar bilan bog‘liq bo‘lib, xalqning dunyoqarashi, ma‘naviyati va etnik-madaniy xotirasini aks ettiradi. Maqolada antroponimik birliklarning tarkibi, tasnifi, motivatsion xususiyatlari hamda o‘zbek ismlarining leksik-semantik rivoji bo‘yicha ilg‘or ilmiy qarashlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: onomastika, antroponim, antroponimiya, antroponimika, nominatsiya, etimologiya, genealogik tizim, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika.

Til jamiyatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasini o‘zida mujassam etgan murakkab tizim sifatida inson faoliyatining barcha jabhalari bilan uzviy bog‘liqdir. Tildagi atoqli otlar esa jamiyatning ma‘naviy-madaniy xotirasi, moddiy va ma‘naviy qadriyatlarining tarixiy-madaniy aks-sadosi sifatida alohida o‘rin tutadi. Atoqli otlarni o‘rganishga bag‘ishlangan onomastika so‘nggi o‘n yilliklarda alohida ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanib, tilshunoslikning mustaqil va muhim bo‘limiga aylangan.

Onomastika (yunon. onomastikē – nom qo‘yish san‘ati) – atoqli otlarning kelib chiqishi, tuzilishi, semantikasi, ijtimoiy-lingvistik funksiyalari va tarixiy taraqqiyotini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limidir.¹⁴¹ Onomastika tizimi turli tipdagi atoqli otlarni qamrab oladi: antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, teonimlar, etnonimlar, gidronimlar, kosmonimlar va boshqalar. Shulardan antroponimika – shaxs nomlari tizimini, antroponimlar esa insonlarga beriladigan atoqli nomlarni bildiradi.

Onomastika – til tizimida mavjud nomlarning kelib chiqishi, tuzilishi, va vazifasini o‘rganuvchi soha bo‘lib, uning tarkibida shaxs nomlari bilan shug‘ullanuvchi antroponimika alohida ahamiyat kasb etadi va shaxs nomlarining tabiati, kelib chiqishi, vazifasi hamda taraqqiyotini o‘rganadi. Onomastikaning birligi hisoblangan antroponim o‘z ichiga aniq birliklarni oladi. Antroponim so‘zi grekcha so‘z bo‘lib, kishilarga berilgan atoqli

¹⁴¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent

otlar maʼnosini bildiradi. Muayyan bir tildagi antroponimlar majmui antroponimiya deb yuritiladi. Masalan, oʻzbek antroponi-miyasi, rus antroponimiyasi, arab antroponimiyasi kabi. Tilshunoslikda antroponim-larni tadqiq qiluvchi maxsus soha boʻlib, u antroponimika deb yuritiladi. Onomas-tikaning bu boʻlimi tildagi barcha antroponimlarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Oʻzbek tili antroponimik tizimi tarixiy shakllanishi, nominativ asoslari va lingvokulturologik vazifalariga koʻra quyidagi asosiy birliklarni oʻz ichiga oladi:

1. Ismlar – shaxsga berilgan asosiy nominativ birliklar.

2. Laqablar – shaxsning tashqi koʻrinishi yoki xulq-atvoriga asoslangan qoʻshimcha nom.

3. Taxalluslar – ijodkorlar, faylasuflar, shoirlar tomonidan qabul qilingan ijodiy nomlar.

4. Genealogik nomlar – “qizi”, “oʻgʻli”, “ibn”, “binni” kabi nasab bildiruvchi birliklar.

5. Familiyalar – XX asr boshlaridan rus tilidan kirib kelgan -ov/-ev shaklli familiyalar.¹⁴²

Oʻzbek onomastik tizimida antroponimlar tarixiy, etnik, madaniy hamda diniy omillar bilan shakllanib, oʻziga xos antroponimik qatlamni hosil qilgan. Kishi nomlari xalqning urf-odatlarini, madaniyati va tarixiy xotirasining muhim koʻrinishidir. Antroponimlar nafaqat nominativ, balki ijtimoiy-lingvistik vazifalarni ham bajaradi: shaxsning jamiyatda tanilishini taʼminlaydi, shaxsning jinsini koʻrsatadi, tarixiy va diniy qadryatlarni aks ettiradi. Oʻzbek antroponimlari etnik-tarixiy, diniy omillar asosida shakllangan.

Oʻzbek xalqining shakllanish jarayoni koʻp etnik omillar bilan bogʻliq boʻlgani uchun shaxs nomlari ham turli tillar va madaniyatlar taʼsirini oʻzida aks ettiradi.

1. Turkiy qatlam

Eng qadimiy qatlamlardan biri boʻlib, koʻpincha qahramonlik, jasorat, kuch-quvvat, tabiat unsurlari yoki turkiy mifologiyaga bogʻliq:

Temur, Botir, Alp, Otabek, Anor, Sarvinoz.

2. Fors-tojik qatlam

Estetik va maʼnaviy-ruhiy sifatlar bilan bogʻliq ismlar:

Farzona, Barno, Boʻston, Mardon, Dilnavoz.

3. Arabcha qatlam

Islom dini kirib kelishi bilan shakllangan diniy-madaniy qatlam:

Abdulloh, Ibrohim, Zubayda, Siddiq, Ilyos.

Ushbu qatlamlarning mavjudligi oʻzbek antroponimik tizimining koʻp qatlamli, tarixiy jihatdan uzviy shakllangan murakkab tuzilishga ega ekanligini koʻrsatadi.

Oʻzbek antroponimlari nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki:

¹⁴² E.A.Begmatov. Oʻzbek tili antroponimikasi. Oʻzbekiston fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti. Toshkent-2013.1-bob 11-b.

- shaxsning jamiyatda identifikatsiya qilinishini ta'minlaydi,
- jins, yosh, nasab, etnik mansublik haqida ma'lumot beradi,
- xalqning ma'naviy qadriyatlari, diniy qarashlari, urf-odatlar va milliy tafakkurini aks ettiradi,
- jamiyatning tarixiy xotirasini saqlaydi,
- lingvokulturologik kod sifatida faoliyat yuritadi.

Shu jihatdan antroponimlar tilning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan lingvistik birliklardir.

Tilshunoslik taraqqiyotida onomastikaning muhim qismi bo'lgan antroponimlarni ilmiy jihatdan o'rganish asosan o'tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Mana shu yillarda Ya.Menajiyev, X.Azamatov, E.Begmatov, D.Abdurahmonov, X.Xakimov, O'.Nosirov, F.Abdullaev, X.Doniyorov va boshqa bir qator olimlarning o'zbek antroponimikasiga oid ilmiy kitoblari, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari nashr qilindi. Bundan tashqari E.T.Smirnov, keyinchalik N.S.Likoshin va rus sayyohi va etimologi V.F.Oshanin, turkiyshunos olim A.Samaylovichlar o'zbekcha ismlarni to'plash va ularni ruscha transliteratsiyada ifodalash masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.¹⁴³

O'zbek tilidagi shaxs nomini bildiruvchi so'zlar umumiy onomastik tizimning barqaror qismini tashkil qiladi. O'zbek antroponimiyasini tashkil qiladigan ismlarning paydo bo'lishi, leksik-semantik xususiyatlari, lug'aviy tarkibi, ularning vaqt o'tgan sari o'zgarib, boyib borishini ilmiy tadqiq qilish bugungi kundagi tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Antroponimlarni ijtimoiy-lisoniy nuqtayi nazardan tadqiq qilish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, etika va estetika, xalq madaniyati va ma'naviyati tarixi, sotsiologiya, etnolingvistika, etnomadaniyat, psixolingvistika sohalari uchun ham qimmatli materiallar bera oladi.¹⁴⁴

O'zbek tili antroponimik tizimi xalqning ko'p asrlik ma'naviy-madaniy merosi, diniy qarashlari va etnik tarixini aks ettiruvchi murakkab lingvistik tuzilma hisoblanadi. Antroponimlarning shakllanishida genealogik, etnik, diniy, sotsiomadaniy va estetik omillar muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda antroponimlarni lingvokulturologik, sotsiolingvistik va kognitiv yondashuvlar asosida tadqiq etish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

¹⁴³ N.Nazarova. Antroponimlarning o'rganilishi. Ilmiy maqola. International Scientific Conference, December 18-19.2021

¹⁴⁴ E.S.Kenjayeve. O'zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingvistik tadqiqi. Avtoreferat. Toshkent-2011

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.S. Kenjayeva. O‘zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingvistik tadqiqi. Avtoreferat. Toshkent-2011
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.
3. E.A.Begmatov. O‘zbek tili antroponimikasi. O‘zbekiston fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti. Toshkent-2013.1-bob 11-b.
4. N.Nazarova. Antroponimlarning o‘rganilishi. Ilmiy maqola. International Scientific Conference, December 18-19.2021
5. X.Xakimov. Antroponimlarning tilshunoslikda o‘rganilish taraqqiyotiga doir. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. SJIF 2023=6.131 / ASI Faktor=1.7. (E)ISSN: 2181-1784. 3(12) Dec.,2023
6. X.Kadirova. O‘zbek ismlarining lingvistik tahlili. Ilmiy risola. Toshkent-2023.
7. <https://arxiv.uz>
8. <https://www.ziyouz.com>